# INGLIZ TILIDAN METODLAR ORQALI ELEKTRON TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH VA QO'LLASH USUL VA VOSITALARI

**Muhitdinova Munira Ravshanovna**
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti p.f.f.d.*
**To'xtayeva Go'zal Ashirboyevna**
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti magistratura 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz tili fani yuzasidan turli metodlar orqali elektron testlarni ishlab chiqilishi va ularni darslarda qo'llash usul va vositalari haqida so'z yuritiladi.*
**Kalit so'zlar**: *iSpring, usul, test, elektron, vosita, kompyuter, dastur.*

# МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗРАБОТКИ И ПРИМЕНЕНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЕ ПО АНГЛИЙКОМУ ЯЗЫКУ МЕТОДАМИ

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается о методах и средствах разработки электронных тестов по английскому языку с помощью различных методов и использования их на занятиях.*
**Ключевые слова:** *iSpring, метод, тест, электронный, инструмент, компьютер, программа.*

# METHODS AND MEANS OF DEVELOPING AND APPLYING ELECTRONIC TEST TASKS FROM THE ENGLISH LANGUAGE THROUGH METHODS

**Annotation:** *This article talks about the methods and means of developing electronic tests in the field of English language through various methods and using them in classes.*
**Keywords:** *iSpring, method, test, electronic, tool, computer, program.*

O'quvchilarning bilimini testlash ta'lim faoliyatida kompyuter texnologiyalari paydo bo'lgunga qadar yuzaga kelgan. Qoidaga ko'ra, o'quvchilarni test nazoratidan ( kompyuterlardan foydalangan holda qo'llash bilan ham) quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- bilimlarning propedevtik (boshlang'ich bilimlarini bilish bo'yicha) nazorat;
- egallangan ko'nikma va o'quvlarning tematik (joriy) nazorat;
- bilimlarning marraviy nazorati;
- o'quv fanining barcha materiali bo'yicha yakuniy attestatsiyasi;
- qoldiq bilim va o'quvlarning monitoring (residual nazorat).

Bevosita testdan o'tkazish ta'lim oluvchi bilimlarini nazorat qilish usuli deb nomlaymiz, bunda test tuzilishi (ya'ni, test topshiriqlari taqdim etilishi tartibi va to'plami) ta'lim oluvchining haqiqiy (faktik) javoblariga bog'liq emas. Bugungi kunda mavjud barcha ABNT (avtomatlashtirilgan bilim nazorati tizimi) lari bevosita testlash rejimida ishlaydi, biroq ular ko'proq soda va uncha haqiqiy bo'lmagan bilimlar baholash usullarini amalga oshiradi.

Hozirgi kunda Word, Excel, Power Point dasturlari fan o'qituvchilarining kundalik qurollariga aylanib ulgurda. Ta'lim sohasiga kirib kelgan yangiliklardan yana biri bu-Power

Point dasturida iSpring ilovalaring paydo bo’lishidir. Ushbu ilovalar Power Point dasturidagi animatsiyalar yaratishga, intrerfaol testlar tuzishga imkon beradi.

iSpring ilovalari tarkibiga iSpring Free, iSpring Pro, iSpring SUITE, iSpring QuizMaker kabi komponentlar kiradi. Xususan, iSpring QuizMaker ilovasi interfaol testlar tuzish uchun mo’ljallangan bo’lib, testologiya fanining deyarli barcha yutuqlari ushbu mo’jazgina dasturda jamlangan.

iSpring QuizMaker ilovasini PowerPoint dasturiga o’rnatish iSpring Suite dasturidan boshlanadi. iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QiuzMaker, iSpring Kinetics ilovalari jamlangan bo’lib, iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratish imkonini beradi.

iSpring QuizMaker dasturida pedagogik interfaol testlarning turli xil shakllar keltirilgan. Testlar uchun sozlamalarda bitta testga qayta-qayta bir necha marta javob berish va o’zgartirish imkoniyati mavjud. Har bir testga muayyan ball belgilash mumkin. Shuningdek, qisman to’g’ri javoblarni berish, savol va javoblarni aralashtirish, vaqt belgilash, har bir javobning natijasini ko’rsatib borish yoki bir yo’la test yakunlanganda natijani ko’rsatish, xatolarni tahlil qilish ham mumkin. Bu imkoniyatlardan foydalanib, nazorat testlarini o’rgatuvchi testlarga aylantirish mumkin. Bu esa tezkor va samarali o’qitish usullaridan biri hisoblanadi.

Testlarning savollari va javoblariga turli rasm, sxema va formulalarni biriktirish mumkin. Har bir shakl muayyan muayyan didaktik jihatlarga ega.

Quyida iSpring dasturi orqali elektron testlar yaratishni ko’rib o’tamiz.

<u>Ispring dasturida elektron testlar yaratish.</u>

Hozirgi vaqtda elektron test yaratish imkoniyati nazorat qilish usuli deb nomlaymiz, bunda test tuzilishi ( ya’ni beruvchi dasturlar) juda ko‘p. Bulardan iSpring Suite dasturlar paketi haqida to‘xtalib o‘tsak.

Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to‘plamidir. iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QuizMaker, iSpring Kinetics jamlangan. Ular yordamida audio, video, interaktiv elementlar va testlar bilan boyitilgan onlayn taqdimot materiallari va o‘quv kurslari, har xil so‘rovnomalar, anketalar, interaktiv testlar kabi bir qancha elektron nashrlar tashkil etish imkoniyati mavjud.

ISpring modulining ilk interfeysi dastur boshqa elektron testlar yaratish dasturlaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

-dasturning ishchi fayli ixtiyoriy kompyuterga ko‘chirib qo‘yilishi va ishlashi mumkin;

-juda kam amallar ketma ketligi bajariladi;

-maxsus bilimlar talab etilmaydi;

-testlarning turli xil turini yaratish mumkin;

-test savollari va javoblariga rasm, formula va video joylashtirish mumkin;

-test natijalari to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron pochtaga jo’natiladi;

-dastur litsenziyaga ega va ochiq kalitli ekanligi.

Dasturda test savollarining quyidagi ko‘rinishlarini yaratish mumkin:

1. Bitta javobli test: bu testning qiyinligi javob variantlarining ko‘pligiga bog‘liq. Bu test turida javob variantlarini keraklicha “добавить” tugmasi yordamida ko‘paytirish mumkin.

Savolga tasvir, ovozli fayl va video fayl qo'shish, javob variantlariga tasvirli fayllarni ilova qilish mumkin. "удалить" tugmasi yordamida javob variantlarini o'chirish mumkin.

Question: **To monitor and give feedback on learners' spoken language**

Answer: A) 


B) 

C) 

D) 

E) 

F) 

2. Bitta to'g'ri javobli yopiq test: bir necha variantdan kerakli javobni tanlash. Bu testga an'anaviy 4 javobli testlar misol bo'la oladi. Bu testda o'quvchidan to'g'ri javobni noto'g'ri javoblardan farqlash talab etiladi.

Question: A lexical set:

A) pair/pear B) thing/think C) young/old D) very/nice

3. Ko'p javobli test: bu test turi yordamida bir necha ma'lumotlar yuzasidan o'quvchi fikrini aniqlash mumkin.




4. Bir necha to'g'ri javobli yopiq test: Bu test murakkabroq hisoblanib, o'quvchidan to'g'ri javoblarni va ularning sonini aniq bilish talab etiladi.Question: To express obligation:

Answer: A) The house is so dirty-I really must clean it.

B) You can borrow some money if you really want to.

C) If you want to look smart, you should cut your hair.

D) We have to put the lights out by midnight every night

5. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan ochiq test:matndagi bitta yoki bir necha bo'sh joylarni kerakli so'z bilan to'ldirish talab etiladi, javoblarni savol ichiga mohirlik bilan yashirish zarur. O'quvchi esa gapni o'qib, uning ma'nosidan kelib chiqib, undagi tushirib qoldirilgan bir nechta javoblarni bilishi va yozishi talab etiladi. Bu test o'quvchining yozma nutqini ( leksika, grammatika, orfografiya) to'g'ri shakllantiradi.

Question: As Monsier Morissot, watchmaker..... by fession and idier ... for The nonce, was strolling along .the boulevard one bright January morning, his hands in His trousers pockets and stomach empty, he suddenly came face to face with .an acquaintance Monsieur Sauvage, a fishing chum. Before the war broke out Morrisot had been in the habit, every Sunday morning, of setting forth ... with .. ....a bamboo rod. His hand and a tin box. on . His back. He took the Argenteuil train, got

6. "To'g'ri-noto'g'ri" ko'rinishdagi test: bunda anketa savoli ko'rinishiga mos test turi, javob varianti faqat ikkita bo'ladi. Bu testda o'quvchining axborotni bilishi sinaladi.

**Quiz 8**

Comics Level A
'General Flying Tiger'

1. Shigemine Sugiura is from Taiwan. TRUE FALSE
2. Shigemine Sugiura was old when he died. TRUE FALSE
3. Shigemine Sugiura died in Ganshan. TRUE FALSE
4. Shigemine Sugiura died in 1944. TRUE FALSE
5. Shigemine Sugiura died in Japan. TRUE FALSE
6. Shigemine Sugiura was kind. He loved people in Taiwan. TRUE FALSE
7. People in Tainan had a shrine for Shigemine Sugiura in 1993. TRUE FALSE
8. General Flying Tiger Temple is for a flying tiger. TRUE FALSE
9. Japanese like to go to General Flying Tiger Temple when they come to Taiwan. TRUE FALSE
10. Shigemine Sugiura liked Ancing Elementary School very much. TRUE FALSE

7. Yopiq test: bunda javob varianti o'quvchi tomonidan kiritiladi;

Question: How many seasons in a year?

Answer:......................................

8. O'zaro moslik o'rnatish: bunda bir necha savollar o'zaro javoblari bilan birlashtiriladi, o'quvchilardan javoblar yozilgan tugmachalarni harakatlantirib bir-biriga biriktirish talab etiladi. Bu testda navigatsiya elementlari ishlatilganligi uchun boshqalaridan ancha qiziqarli. Bu testda bitta savol ichida bir nechta muammo beriladi. Biroq talaba oson javoblarni topsa, murakkab javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Bu vaziyat o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

| Questions | Answers |
|---|---|
| 1.Nouns | A) see, run, take off |
| 2.Verbs | B) completely, yesterday, at the end |
| 3.Adjectives | C) children, sugar, London |
| 4.Adverbs | D) easy, difficult, warm |

6. Javoblarni tartiblash: savolning ushbu turida javob variantlari o'zaro tartiblanadi, Javoblar berilgan bo'lib, ularni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladi. Bu testda ham navigatsiya elemnti qo'llanilganligi sababli u boshqalariga qaraganda, qiziqarliroqdir. Bu testda ham mantiqiy fikrlash talab etiladi, biroqmoslik testidagi kabi javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qolmaydi. Shu sababli bu test boshqalaridan ancha murakkab va qiziqarli hisoblanadi.

| Question: How old are you? | Answers: Hello |
|---|---|
| My name is Tom | What's your name? |
| Hello | My name is Tom. |
| What's your name? | What's your surname? |
| My surname is Jackson | My surname is Jackson |
| I am 10 years old | How old are you? |
| What's your surname? | I am ten years old |

7. Son kiritiladigan ochiq test: savolning javobi sifatida o'quvchi sonni kiritishi kerak,ochiq testing ( 4-turidagi testing) xususiy shakli bo'lib, o'quvchidan aniq javobni bilishi va satrga sonni yozish talab etiladi. Biroq, bu testing o'ziga xosligi shundaki, unga javobni aniq, taxminiy yoki, ma'lum bir oraliqda berish mumkin. Bu test tuzuvchiga savolni to'g'ri shakllantirishni, o'quvchidan esa savoldagi ikkinchi yashirin ma'noni anglagan holda to'g'ri javob berishni talab etadi.

Question: When Harry Potter was written?

Answer: 1997

8. Matn kiritiladigan ochiq test: Javobni satrga kiritish yo'li bilan javob beriladi. Bu test oldingilaridan murakkabroq bo'lib, o'quvchidan to'g'ri javoblarni va ularning sonini aniq bilish talab etiladi

Question: Pichia pastoris lives in which trees?

Answer: Chestnut

9. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan yopiq test: Ushbu test 8-turdagi testga nisbatan osonroq, chunki, unda javoblar mavjud bo'ladi, o'quvchidan faqat mantiqiy fikrlash va javoblarni bir-biriga qiyoslab, ro'yxatdan to'g'risini tanlash talab etiladi.




10. Javoblari keltirilgan savol: savolning bo‘sh qismlarida javoblar variantlari keltirilgan bo‘ladi, ushbu javob variantlardan to‘g‘risini belgilash mumkin.

Question: They went to school ...........bus.

Answer: A) with B) on....................C) by

11. Javoblarni bankdan tanlash testi: Bu test so’zlar omboridan to’g’ri javoblarni tanlab, harakatlantirib o’zining joyiga qo’yish talab etiladi. Matnning bo‘sh joylariga berilgan so‘zlardan keraklilarini tanlab joylashtiriladi. Savolni qiyinlashtirish uchun so‘zlar sonini bo‘sh joylar sonidan ko‘paytirish mumkin. Bu test tuzuvchidan aniq javobni rejalashtirishni, boshqa to’g’ri javoblar bo’lmasligini talab etiladi.

| Contribute, supportive, argumentative, consult, self-evaluation, self confidence |
|---|

1. His family was .......... of his attempts to be a writer.
2. ................your teacher before making a presentation.
3. He is only seventeen, but he has enormous ............. .
4. Fresh air and exercises ............... to good health.

12. Faol hududni aniqlovchi savol: Savolda rasmdagi qaysidir maydonni belgilash vazifasi joylashtirilgan bo‘lib, ushbu rasmdagi hudud o‘quvchi tomonidan javob berish jarayonida tanlanadi.

Question: **Find the cloud**




Aytish joizki, yuqorida ta'riflangan metodika va axborot texnologiyalari yordamida test tuzish o'quvchilarga kursni alohida bo'lim materiallarini o'rganish darajasi va o'zlashtirishga testni bosqichma-bosqich hamda turli usullar orqali yakuniy bahoni oraliq testlash jarayonlari natijalarini hisobga olgan holda chiqarishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.«Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish to g'risida» 2002 yil 31 maydagi PF- '3080-sonli Farmoni.

2.Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. –Toshkent: 2002.-148 b.

3. Abrahamsen, E., & Mitchell, J. Communication and sensorimotor functioning in children with autism// Journal of Autism and Developmental Disorders, 1990. - pp. 75–85.

4.www.ziyonet.uz.